

ICHKI ISHLAR ORGANLARI FAOLIYATIDA PSIXOLOGIK BILIMLARNING AHAMIYATI.

Axmedov Farxod Saydaliyevich

Malaka oshirish instituti Kasbiy tayyorgarlik fakulteti

Maxsus fanlar sikli o'qituvchisi, podpolkovnik

Annotasiya: Mazkur maqolada ichki ishlar organlari faoliyatida psixologik bilimlarning ahamiyati, ularni barvaqt oldini olish, zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan unumli foydalanish, har bir ichki ishlar xodimi o'zlariga biriktirilgan hududda huquqbuzarlik va jinoyatchilikka qarshi kurashishning tashkilotchilari bo'lgan tergovchi, tezkor xodim, profilaktika inspektori o'z faoliyatini bir-birlari bilan o'zaro bog'liq holda olib borishda, huquqbuzarlik va jinoyatchilikni barvaqt oldini olish borasida amalga oshirilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Professiogramma, stress, rekonstruktiv, kommunikativ, huquqbuzarlik, jangovar, jinoyat, profilaktika.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: «Xalqimiz yaratgandan avvalo tinchlik-xotirjamlikni so'raydi. Shundan so'ng o'z uyim, boshpanam bo'lsa, oilam, bola-chaqam bilan sog'-salomat yashasam, deydi. Biz xalqimizning ana shunday orzu-niyatlarini ro'yobga chiqarish uchun ikkita masalaga, ya'ni ichki ishlar va sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishga alohida e'tibor qaratayapmiz», deganlarida tinchlik-xotirjamlikning inson, jamiyat, davlatning eng muhim hayotiy manfaatlarini ro'yobga chiqarishdagi o'rni hamda bu buyuk ne'matni ta'minlash umummilliy vazifa ekanligini nazarda tutadi.

Ichki ishlar organlari faoliyatida psixologik bilimlarning ahamiyati katta va muhimdir. Psixologiya, ya'ni inson ruhiyatini tushunish, ichki ishlar organlari uchun muhim instrument bo'lib, quyidagi sabablar bilan ahamiyatga ega:

birinchidan, jinoyatchilarni tushunish: Ichki ishlar organlari, ayniqsa tergovchilar, jinoyatchilarning ruhiy holatini, ularning raftorini va ularning tuyg'ulari, motivatsiyasi haqida aniq tushunchaga ega bo'lishlari kerak. Psixologik bilimlar orqali tergovchilar jinoyatning sabablarini aniqlash, shubhali shaxslar bilan samarali muloqot o'rnatish va ularni aniqraq kuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

ikkinchidan, psixologik tahlil va yordam: Ichki ishlar organlari faoliyatlarida odamlar bilan muloqot qilish, ularga yordam berish, ularning dushmanlik va qo'rquv kabi negativ his-tuyg'ularini yengish yoki jinoyatlarga aralashgan shaxslarning ruhiy holatini yaxshilash uchun psixologik yordam berish muhimdir. Bu bilan odamlar bilan ishlash, ularga ishonch uyg'otish va qonunlarning ijro etilishida muvaffaqiyatga erishish mumkin.

uchinchidan, konfliktlarni hal qilish: Ichki ishlar organlarida xizmat qilish jarayonida turli xil konfliktlar yuzaga kelishi mumkin. Psixologik bilimlar, ularni hal qilishda muhim rol o'ynaydi, chunki odamlar bilan samarali aloqa va ularning hissiyatlarini tushunish konfliktlarni pasaytiradi va ko'p holatlarda o'zaro tushunish va yordam berish imkonini yaratadi.

to'rtinchidan, psixologik stressni boshqarish: Ichki ishlar xodimlari o'z faoliyati davomida ko'pincha yuqori darajadagi stress, qo'rquv va ruhiy bosimga duch kelishadi. Psixologik bilimlar ularning o'z his-tuyg'ularini tuzatish, professional stressni boshqarish va ishlash muhitini yaxshilashga yordam beradi.

beshinchidan, psixologik holatni tekshirish: Ichki ishlar organlarining xodimlari ham psixologik testlardan o'tkazilishi, ularning ruhiy holatini tekshirish va nomatlub o'zgarishlarni bartaraf etishda psixologik bilimlar ahamiyatlidir. Bu xolda ularning ishga oid va shaxsiy muammolarini hal qilishda psixologik yordam ko'rsatiladi.

Ma'lumki, bugun ichki ishlar organlari sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, birinchi navbatda, respublikamiz uchun har tomonlama yetuk, munosib kadrlar tayyorlash masalasini kun tartibiga qo'ymoqda. Ayni damda olib borilayotgan islohot va kadrlar tayyorlash dasturlari e'tiborni bo'lajak xodimlarda mavjud kasbiy

xususiyatlarga qaratishni, ularni jismonan, ma'nan sog'lomligi, dunyoqarashi, fikrlash doirasining kengligi, Vatan himoyasida o'z aqidalariga sodiqligi, o'quv va ish jarayonida axborot, bilim va tajribalarni o'zlashtirishda shaxs xususiyatlari dolzarb ahamiyatga molik ekanligini ta'kidlamogda.

Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy professiogrammasi haqida batafsil to'htalib o'tamiz:

Surishtiruv faoliyati – kasbga oid masalalarni hal etish uchun zarur bo'lgan ilk ma'lumotlarni yig'ishni bildiradi. Tergovchi, tezkor xodim yoki profilaktika inspektori professiogrammalarida bu faoliyatning qiyosi ayniksa yuqoridir.

Rekonstruktiv faoliyat - biron bir jinoiy ish bo'yicha jami to'plangan ma'lumotlarning joriy va yakuniy tahlil qilib, uni mahsus bilimlar, ma'lumotlarga tayangan holda turli tasmollar, farazlarni ilgari surish hamda shu asosda ishni rejalashtirish rekonstruktiv faoliyatning natijasi hisoblanadi.

Kommunikativ faoliyat – Bu alokaga kiritish faoliyati bo'lib, muomala jarayonida jinoyatni ochish uchun zarur bo'lgan operativ ma'lumotlarni olishda qo'l keladi. Ya'ni, dastlabki tergov jarayonida, tezkor xodimlar faoliyatida kerakli ma'lumotlarni to'plashda katta ahamiyat kasb etadi.

Tashkiliy faoliyat – sodir etilgan voqyea, hodisalarga oid turli taxminlarni va ishchi rejallarni tuzish hamda amalga oshirish chog'ida yuzaga keladigan irodaviy xatti-harakatlardan iboratdir. U muayyan kasbiy masalalarni hal etish uchun o'zini va shunga aloqador bo'lgan mansabdor shaxslarni safarbar kilish singari omillarda nomoyon bo'linadi.

Dalillash faoliyati - sodir etilgan jinoiy ish bo'yicha olingan barcha ma'lumotlarni qonunda ko'zda tutilgan tarzda, mahsus shaklda bayon (qaror, bayonnoma, hukm va hakoza tarzda) etishni bildiradi.

Xodimlar faoliyatining rekonstruktiv tomoni ma'lumotlarni qayta ishlash va qarorlarni qabul qilishda ko'zga tashlanadi. Xodimlar ayni chog'da juda ko'p fanlarni

ya'ni, jinoyat prosessual kodeksi, jinoyat kodeksi, kriminalistika, ballistika, psixologiyaga oid bilimlarga ega bo'lishlari zarur.

Xodimlar faoliyatida kommunikativ soha ya'ni, muomalaga kirishuv-chanlik asosiy o'rinlardan biri bo'lib hisoblanadi, chunki xodim o'ta murakkab vaziyatlarda muloqot olib borishi sababli unda muloqotmanlik va rolga qirishish qobiliyati yaxshi shakllangan bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xodim shaxsi murakkab va serqirradir. Xodimning muayyan ijtimoiy rolni egallaganligi, ishida ko'pincha emosional-hissiy tayziqlarga uchrashi, ba'zan unga turli-tuman salbiy hissiyotlar-hayiqish, achinish, qo'rquv, nafrat, g'azab ta'sir etib turishi, undan muayyan jismoniy va psixologik xamda irodaviy zo'r berishni talab kiladi.

Yuqoridagi emosional xolatlar ta'sirida vujudga keladigan zo'riqish, asabiylashishni bartaraf etish uchun ijobiy taassurotlar zarur. Ya'ni, o'z mehnatidan qoniqishi, jamiyat va insonlarga foydasi tegayotganligini anglash hissi shular jumlasidandir.

Jinoyatchilikka qarshi kurashning oldingi marralarida bo'lgan jinoyat qidiruv bo'limi xodimining faoliyati qotillik, o'g'rilik bosqinchilik, talonchilik kabi jinoyatlarning oldini olish, ularni ochish va tergov kilishdan iboratdir. Uning faoliyati favqulodda vaziyatlarda, asabiy kechishi bilan ajralib turadi. Shuning uchun jinoyat qidiruv xodimining ish faoliyati kuchli xotirani, sir boy bermaslik, o'zini tuta bilish, tez va sovuqqonlik bilan qaror chiqarish, o'ta hushyorlik va qat'iyatni talab etadi.

Ichki ishlar organlari xodimlarini kasbiy kasbiy shakllanishidagi ruhiy omillarining bir necha xususiyatlari mavjud. Ushbu xususiyatlar xodimlarning ruhiy jihatdan tayyorgarligiga salmoqli ta'sir ko'rsatadi. Ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatining xususiyatlaridan biri bu ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatining huquqiy jihatdan tartibga solinganligidir.

Xodimlarning faoliyati huquqiy normalar (qonun hujjatlari, IIV normativ hujjatlari, buyruq va shu kabilar) bilan qat'iy tartibga solingan. Ushbu xususiyat ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy faoliyatini normativ xujjatlar, yo'riqnomalar va

buyruqlar belgilab beradi va mehnatni samarali tashkil etish haqidagi shaxsiy tasavvurlarini erkin amalga oshirish uchun keng imkon yaratadi.

Ichki ishlar organlari xodimining faoliyatini qonun normalari bilan qat'iy belgilanganligi, uning xatti-xarakatini tartibga soladi. Xodimning o'z xizmat vazifalarini bajarmasligi yoki bajarishdan bosh tortishi uning u yoki bu qonunni buzishi hisoblanadi va bu O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 208-moddasi bilan jinoiy javobgarlikka tortiladi. Bularning hammasi oxir-oqibatda xodimga o'z qarorlari va harakatlari uchun katta mas'uliyat yuklaydi.

Ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatining yana bir psixologik xususiyati hokimiyat vakolatiga egaligidir. Ish manfaati yo'lida xodimlarga zarur hollarda odamlarning shaxsiy hayotiga aralashish, ko'pincha atrofdagilardan yashirishga harakat qilinadigan holatlarni aniqlash, fuqarolarning turar joylariga kirish, zarur hollarda ayrim fuqarolarning erkinligini cheklash va hatto undan mahrum qilish huquqi berilgan.

Bunday hokimiyat vakolati berilgan xodimning psixologik holatini, avvalo yuksak darajadagi mas'uliyat belgilab beradi. Uning o'z vakolat-larini qo'llashi esa harakatlarining zarurligi va oqilonaligini, qonuniy asosga egaligini aniqlash imkonini beradigan bir qator masalalarni hal qilishni taqozo etadi. Ko'pincha bu hol konunda belgilangan moddalardan birini tanlash zarurati bilan bog'liq bo'ladi, shu bois bu xodimdan juda katta xissiy zo'riqishni talab etadi. Berilgan vaqolatdan oqilona va qonuniy ravishda foydalana olish — ichki ishlar organlari xodimlariga qo'yiladigan juda muhim kasbiy talablardan biridir. Hokimiyat vakolatidan foydalanishning qonunga va maqsadga muvofiqligi ko'p hollarda xodimning shaxsiy xislatlariga bog'liq.

Xodimlar kasbiy faoliyatining muhim psixologik xususiyatlaridan biri manfaatdor shaxslarning doimiy ravishda qarshilik ko'rsatishi va to'sqinlik qilishidir. Bu xodimning jinoyatlarni ochish, tergov qilish va ularning oldini olishga qaratilgan faoliyatiga ba'zan juda keskin shakllarda kechadigan kurash tusini beradi. Xodimning yo'liga atayin qo'yiladigan to'siqlarni yengish, xavfli vaziyatlarni bartaraf etish zarurati unda turli hissiy va ruxiy zo'riqishlarni keltirib chiqaradi. Bu esa o'z navbatida xodimdan doimiy

asabiy zo'riqishni va zo'r aqliy faoliyatni talab etadi. Natijada xodim doimiy ravishda murakkab aqliy faoliyatni amalga oshirish, o'z maqsadlarini yashirish, haqiqiy ijtimoiy vazifalarini niqoblashga majbur bo'ladi.

Ichki ishlar organlari xodimlarini kasbiy faoliyatining o'ziga xos jihatlaridan yana biri bu - keng doiradagi muhit bilan muomala qila olish qobiliyatini bildiruvchi kommunikativlikdir. Bu ko'p tomonlama va alohida xususiyatga ega bo'lgan hislatdir. Xodim o'z faoliyati davomida turli yoshdagi, kasbdagi va turli huquqiy maqomga ega bo'lgan shaxslar bilan muomala qilishga to'g'ri keladi. Bu esa, xodimdan shaxs psixologiyasini, xususan, muomalaning psixologik asoslarini bilishni talab etadi. Xodimning kommunikativligi turli xil tergov, operativ qidiruv va profilaktik tadbirlarni to'g'ri tashkil qilish uchun nihoyatda zarurdir.

Xodim kommunikativligining alohida jihati shundaki, u xodimdan boshqa qiyofaga kirishni talab etadi. Ushbu zarurat uning o'z faoliyati sohasiga kiradigan barcha shaxslar bilan psixologik aloqaga kirishishi muhimligidan kelib chiqadi.

Vaqt tanqisligi va ishning haddan tashqari ko'pligi ham xodim kasbiy faoliyatining xususiyatlariga kiradi. Tezkorlik va saramjonlik jinoyatlarni ochish va tergov qilishning asosiy prinsiplariga kiradi. Jinoyatchi erkinlikda qancha ko'p yursa, unda javobgarlikdan qutilish, o'z jinoiy faoliyatining izlarini yo'qotish va tergovdan qochib yashirinish imkoniyati shunchalik ko'p bo'ladi. U vaqtdan yutadi. Paysalga solish muvaffaqiyatsizlikka olib keladi.

Vaqt tanqisligi esa, jinoyat ishni tergov qilish, fuqarolarning arizalarini ko'rib chiqish kabi jinoiy prosessual xujjatlarga rioya etish zarurligida namoyon bo'ladi. Xodim shu tufayli doimo asabiy zo'riqishda bo'ladi. Asabiy zo'riqiy xodim faoliyatining yuqori ekstremalligi, nizoli, vaziyatlar sharoitida harakat qilish, turli stress omillar ta'siri, me'yorsiz ish kuni, faoliyatida salbiy his-hayajonlarning mavjudligi tufayli yuzaga keladigan katta jismoniy va ruhiy zo'riqish bilan bog'liq. Albatta, xodimning kasbiy faoliyatiga yorqin ifodalangan bilish xususiyati xosdir. Bu esa turli xil qiyinchiliklarni, fikriy vazifalarni turlicha hal qilishnigina emas, balki ushbu

qarorlarni amalga oshirishni tashkil etishni ham talab etadi. Bunda turli tasmollar tuzish, operativ xizmat tadbirlarini amalga oshirish uchun ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan sof aqliy faoliyatni amalga oshiradigan ishni amalda tashkil qilish kerak bo'ladi.

Xodim kasbiy faoliyatining asosiy kasbiy shakllanishidagi ruhiy omillarga xususiyatlari tarkibiy elementlarini ko'rib chiqish ham uning faoliyati qanchalik murakkab va serqirraligidan dalolat beradi.

Kasbiy faoliyat xodimga ko'plab turli xil talablar qo'yadi, ular orasida eng muhimlaridan biri — shaxsda kasbiy muhim xislatlarning rivojlanganlik darajasi bo'lib, ular o'z navbatida quyidagilardan iborat:

xodim shaxsiga xos xislatlarning kasbiy-psixologik yo'nalganligi;

xodimning psixologik tayyorgarligi;

rivojlangan irodaviy xislatlar;

nostandart vaziyatlarda o'zini tuta bilish, jasurlik, mardlik, oqilona tavakkalga moyillik;

yaxshi rivojlangan kommunikativ xislatlar;

turli toifadagi shaxslar bilan tezda aloqaga kirisha olish, ishonchli munosabatlar o'rnatish olish va sir saqlay olish;

turli xil tezkor xizmat vazifalarini bajarishda odamlarga psixologik ta'sir ko'rsatish olish qobiliyati;

rolga, boshqa qiyofaga kira olish;

rivojlangan, kasbiy jihatdan muhim bilish xislatlari: kuzatuvchanlik va diqqatlilik, rivojlangan xotira, ijodiy tasavvur;

rivojlangan mantiqiy tafakkur, murakkab aqliy ishga moyillik, farosat, rivojlangan intuisiya;

ziyraklik, murakkab vaziyatdan chiqib keta olish.

Ushbu xislatlar insonga avvaldan xos emas. Ularni shakllantirish va rivojlantirish — davomli va qiyin jarayon, ammo u ichki ishlar organlari xodimining kasbiy shakllanishi uchun zarur va shartdir.

Ushbu xislatlarning xodim shaxsida bo'lmashligi yoki yetarli rivojlanmaganligi, uning o'z funksional vazifalarini to'g'ri va aniq bajarishiga halaqit beradi, shaxsning o'z kasbiga moslasha olmasligi va kasbiy buzilishiga olib keladi. Shu munosabat bilan, xodimlarda ushbu xislatlarni shakllantirishga xizmat qiladigan kasbiy-ruhiy tayyorgarlik katta ahamiyat kasb etadi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy shakllanishidagi muhim ruhiy omillari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatining huquqiy jihatdan tartibga solinganligi;

Xokimiyat vakolatiga ega ekanligi;

Manfaatdor shaxslarning doimiy ravishda qarshilik ko'rsatishi va to'sqinlik qilishi;

Kommunikativ faoliyati;

Vaqt tanqisligi va ishning haddan tashqari ko'pligi;

Bilish faoliyati, konstruktiv, tashkilotchilik va kommunikativ faoliyat.

Yuqorida qayd etilgan omillar ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy faoliyatini ma'lum bir huquqiy tizimga soladi va ish jarayonini samarali tashkil etishda hamda shaxsiy tasavvurlarini erkin amalga oshirishda katta imkoniyat yaratadi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining asosiy kasbiy professiogrammasi.

Ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatining samaradorligini oshirishda, uning shaxs sifatidagi fazilatlarining ushbu kasbga javob berishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy jihatlarini, shuningdek, unda ko'zga tashlanadigan insoniy sifatlarini keng kamrovli (kompleks), majmuaviy tarzda aks

ettiruvchi ichki ishlar organlari xodimi professiogrammasi (kasbga oid xususiyatlari)ni yaratish, ushbu faoliyatni psixologik tahlilining asosiy talablaridan biridir.

Har bir ichki ishlar xodimi o'zlariga biriktirilgan hududda huquqbuzarlik va jinoyatchilikka qarshi kurashishining tashkilotchilari bo'lgan tergovchi, tezkor xodim, profilaktika inspektori o'z faoliyatini bir-birlari bilan o'zaro bog'liq holda olib borishadi. Xizmatga jalb etilgan qo'riqlash bo'limi xodimlari ham o'z kasbiy qobiliyati va malakalarini oshirib borishadi. Bu faoliyat jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan profilaktik talablar ishlab chikish, huquqiy targ'ibot olib borish, jinoyatchi xulq-atvorini ijtimoiy me'yorlar talabiga bo'ysundirish, jazoni o'tab qaytgan shaxslarni ijtimoiy moslashtirish (readaptasiyalashtirish), ularni qayta tarbiyalash maqsadida shaxsga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan psixologik choralar tizimini yaratish singari vazifalarni o'z ichiga oladi.

Xodimning ish faoliyatlari ikki yo'nalishda amalga oshiriladi.

Birinchidan: tezkor xodim, tergovchi bilan birgalikda voqyea sodir bo'lgan joyga chiqadi va u bilan birgalikda ko'zdan kechirish, tintuv qilish kabi tergov jarayonlarida qatnashadi.

Ikkinchidan: xodim o'z kasbi va faoliyatidan kelib chikib turli psixologik usullarni qo'llab jinoyatchilarning g'arazli niyatlarini bilib olish va ularni amalga oshmasliklarini ta'minlash chora tadbirlarini ko'radi. Bunday vaziyatlarda xodim maxsus usullar yordamida xavfli jinoyatchilarni, ularning turar joylarini, aloqalari va maqsadlari haqida zarur axborotlarni olish huquqiga ega. Aksariyat, hollarda xodimda kuzatish, faoliyatning asosiy shakllaridan biri tarzida intellektual tafakkurning zarur shartlaridan biri bo'lgan kasbiy kuzatuvchanlikni, boshqacha qilib aytganda, fahm-farosatni rivojlantiradi. Shu bilan birgalikda, xodim intizomli o'ziga talabchan bo'lishi, vaqtni to'g'ri rejalashtirishi, ko'ngilli yordamchilar va xabarchilarni tanlay bilishi va ularning yordamidan samarali foydalanishi darkor.

Xodim faoliyatining rekonstruktiv tomoni shundan iboratki, u taxminni yaratishda muhim rol o'ynaydi, jinoyat ko'rinishini psixologik portretini tiklaydi, jinoiy ish

yuzasidan asosiy farazlarni ishlab chiqadi va qidiruv ishlarini rejalashtiradi. Xodim aqlidorki, mehnat faoliyati mobaynida amaliy tafakkuri bilan ajralib turadi. Uning faoliyatini ahamiyatli tomoni shundaki, u jinoyatlarning oldini olishga intilishi, o'z hududida hisobda turadigan shaxslarning jinoiy ishlariga g'ov bo'ladigan vaziyatlarni yuzaga keltirishi lozim. Buning uchun u odamlar bilan tez til topishishi, lozim paytda aktyorlik qobiliyatini nomoyon etishi, o'zgaruvchan sharoitni e'tiborga olishi, topqirligi va irodasiga tayanishi, qonun doirasida majburlashni qo'llay olishi darkor.

Ma'lumki, ichki ishlar organlari xodimlarining faoliyatini profi-laktika (jinoyatlarni oldini olish) inspektorlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Profilaktika katta inspektorining asosiy vazifasi jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash, o'z hududida hisobda turadigan fuqarolarni nazorat qilish hamda sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarni oldini olishdan iborat.

Ijtimoiy faoliyati jarayonida profilaktika inspektori, davlat tomoni-dan qabul qilingan qonun va qarorlarni o'z hududida targ'ibot va tashviqot qiladi, o'z xudidagi jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan fukarolarni xisobga oladi va jinoiy jazoni o'tab kelgan shaxslarni kayta tarbiyalashda hamda nosog'lom oilalar bilan profilaktik ishlarni olib borishda katta rol o'ynaydi.

Profilaktika katta inspektorining tashkiliy faoliyati ko'yidagilardan iborat ya'ni, o'z hududidagi aholining yashash sharoiti bilan yaqindan ta'nishish, iqtisodiy nochor bo'lgan oilalarga, boquvchisi yo'q fuqarolarga yordam berish ishlarini tashkillashtirish, fuqarolar tomonidan berilgan ariza va shikoyatlarni o'z vaqtida ko'rib chiqish va mavjud muammolarni bartaraf etishdir.

Profilaktika katta inspektorining kommunitkativ faoliyati, o'z xudidagi aholi bilan doimiy ravishda aloqada bo'lish, aholisi gavjum bo'lgan hududlardagi fukarolarning kayfiyatilarini o'rganish va ularga do'stona munosabatni nomoyon etishdan iborat.

Qo'riqlash bo'limi va jazoni ijro etish muassasalarida xizmat qilayotgan xodimlarining ham kasbga oid xususiyatlari profilaktika inspektoridan kam bo'lmasligi,

kasbining sir-asrorlarini qunt bilan o'rganishi, o'z yashash joylarida profilaktika inspektorlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishi shart.

Xulosa qilib, shuni alohida takidlash mumkinki, ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy faoliyatini samarali tashkil etishda kasb professiogrammasi: ijtimoiy, surishtiruv, kommunikativ, tashkiliy, dalillash faoliyatlari muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida qayd etilgan professiogramma tizimi jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan profilaktik talablarni ishlab chiqish, huquqiy targ'ibot olib borish, jinoyatchi xulq-atvorini ijtimoiy me'yorlar talabiga bo'ysundirish, jazoni o'tab qaytganlarni ijtimoiy moslashtirish (readaptasiyalashtirish), ularni qayta tarbiyalash maqsadida shaxsga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan psixologik choralar tizimini yaratish singari vazifalarni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, psixologik bilimlar ichki ishlar organlarining boshqa sohalarida ham, masalan, harakatlar va strategiyalarni belgilash, xodimlar bilan ishlash va tashkilotni to'g'ri boshqarishda katta ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR:

1. Sirliyev B.N. Ismailova N., Xakimova I.M. Yuridik psixologiyadan praktikum. O'quv qo'llanma. – Akademiya, 2016.
2. Dushanov R.X., Farfiyev Yo.A. Kasbiy psixologiya. Ma'ruzalar kursi. T., 2012.5-27 b.
3. Vohidov M., Maktabgacha tarbiya psixologiyasi, T., 1970;
4. Shomurodov G'., oila psixologiyasi, T., 2000 yil.
5. G'oziyev E., Psixologiya, T., 2003 yil.